


5 sinf Matematika 3-BSB topshiriqlari va mezonlari

Bob	Mavzu	Baholanadigan ko'nikma	Namunaviy topshiriq	Ajratilgan ball
III. Oddiy kasrlar	To'g'ri kasrni natural songa ko'paytirish; Noto'g'ri kasrni natural songa ko'paytirish; Ikkita to'g'ri kasrni ko'paytirish	To'g'ri kasrni natural songa ko'paytira oladi; Noto'g'ri kasrni natural songa ko'paytira oladi; Ikkita to'g'ri kasrni ko'paytira oladi	Hisoblang: 1) $\frac{3}{4} \times 32$; 2) $\frac{7}{5} \times 55$; 3) $\frac{7}{12} \times \frac{3}{5}$.	3 ball
	To'g'ri va noto'g'ri kasrlarni ko'paytirish; Ikkita noto'g'ri kasrni ko'paytirish; Aralash sonlarni natural songa ko'paytirish	To'g'ri va noto'g'ri kasrlarni ko'paytira oladi; Ikkita noto'g'ri kasrni ko'paytira oladi; Aralash sonlarni natural songa ko'paytira oladi	Hisoblang va natijani qisqartiring: 1) $\frac{11}{12} \times \frac{9}{4}$; 2) $\frac{7}{2} \times \frac{15}{14}$; 3) $3\frac{4}{7} \times 21$.	3 ball
	Ikkita to'g'ri kasrni ko'paytirish	Ikkita to'g'ri kasrlarni ko'paytirish qoidasini masalalar yechishda qo'llay oladi	Kinoteatrdagi tomoshabinlarning $\frac{3}{8}$ qismi – katta yoshlilar, qolgan qismi – bolalar. Bolalarning $\frac{2}{3}$ qismi esa qizlardan iborat. Quyidagi savollarga javob bering va javoblaringizni oddiy kasr ko'rinishida yozing: 1) Tomoshabinlarning qancha qismi bolalar? 2) Tomoshabinlarning qancha qismi qiz bolalar? 3) Tomoshabinlarning qancha qismi o'g'il bolalar?	5 ball

To'g'ri kasrni natural songa ko'paytirish;	To'g'ri kasrni natural songa ko'paytirish qoidasini masalalar yechishda qo'llay oladi	Sitorada qizil va ko'k rangdagi olmalar bo'lib, ularning jami soni 150 ta edi. Bu olmalarning $\frac{2}{3}$ qismi qizil rangda, qolganlari esa ko'k rangda edi. Sitora keyinchalik 30 ta qizil olmani sotib yubordi va buning evaziga yana bir nechta ko'k olma sotib oldi. Natijada Sitoraning jami olmalari soni 130 ta bo'ldi. Sitoradagi ko'k olmalar soni nechta bo'ldi?	6 ball
Qolgan qismning qismi	Qolgan qismning berilgan qismini topa oladi	Qolgan qismning $\frac{3}{7}$ qismini toping. 	3 ball
Jami			20 ball